

samarali boshqarish natijasida kompaniyaning sof foydasi taqsimlanishi uchun yetarli miqdorda pul oqimlari shakllanadi. Bu esa kompaniyaning dividend siyosatini barqaror saqlashga va aksiyadorlar manfaatlarini kafolatlashga yordam beradi. Investorlar odatda barqaror daromad va yaxshi boshqariladigan pul oqimlariga ega bo'lgan kompaniyalarga katta qiziqish bildiradilar, chunki bunday kompaniyalarga investitsiya kiritish xavfsiz va istiqbolli hisoblanadi. Pul oqimlarini samarali boshqarish va debitorlik qarzlarini minimallashtirish orqali kompaniya o'zining investitsion jozibadorligini oshirishi va kapital bozorida ishonchli imidj shakllantirishi mumkin. Shu sababli, debitorlik qarzlarini nazorat qilish korxonaning moliyaviy muvaffaqiyati va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismidir deb hisoblaymiz.

Debitorlik qarzlarini samarali boshqarish nafaqat kompaniyaning ichki moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki uni investorlar uchun jozibali qiladi. Shu sababli, kompaniyalar debitorlik siyosatini qayta ko'rib chiqib, to'lov intizomini kuchaytirish, qarz berish shartlarini optimallashtirish va monitoring tizimini joriy etish orqali o'z investitsion jozibadorligini oshirishi mumkin o'ylaymiz.

MOLIYAVIY BOZORDA BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YIRIK INSTITUTSIONAL INVESTITSIYA SUBYEKTLARINING AHAMIYATINI KUCHAYTIRISH

Xamitillayeva Jasmina-

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

*Moliya fakulteti Xalqaro valyuta va
kredit munosabatlari yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Moliya bozorining barqarorligi – iqtisodiy o'sishning sog'lom asosini shakllantirish, spekulyativ risklarni minimallashtirish va uzoq muddatli investitsiyalar orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash nuqtayi nazaridan asosiy omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, institutsional investorlar (pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, davlat investitsiya agentliklari va boshqa yirik subyektlar) bozorga katta mablag'larni kiritish orqali, kichik investorlarga nisbatan ancha keng va chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu investorlar, o'zlarining katta investitsiya portfellari va uzoq muddatli strategiyalari orqali, bozorning risklarini diversifikatsiyalash, likvidlikni oshirish hamda korporativ boshqaruv tizimini yaxshilashda muhim rol o'yndaydi. Amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, yirik investorlar bozorning o'zgaruvchan sharoitlarida spekulyatsion bosimni kamaytirish va tizimiylar barqarorlikni mustahkamlashda o'zining sezilarli ijobiy ta'sirini namoyon etadi. O'zbekiston sharoitida ham institutsional investorlarning faol ishtiroki moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda zarur omillardan biridir. Ular, investitsion mablag'larni samarali boshqarish orqali moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirish, shaffof axborot almashinuvi va korporativ boshqaruvni mustahkamlash orqali bozorning sog'lom rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu bilan

birga, davlat tomonidan belgilangan normativ-standartlar va qonunchilik asosida institutsional investorlar faoliyati yanada optimallashtirilsa, bu milliy moliya bozorining xalqaro standartlarga mos kelishini va investorlarning ishonchini oshirish imkonini beradi.

Institutsional investorlarning moliya bozorda o'ynayotgan roli nafaqat yirik mablag'larni boshqarish bilan cheklanmay, balki bozorning barqarorligi va ishonchliligin ta'minlashda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ular qisqa muddatli spekulyatsiyalardan voz kechib, uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilish orqali moliya bozorning volatilligini pasaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu qarorlar, ko'plab yirik investitsiya fondlari va pensiya jamg'armalari faoliyatida namoyon bo'lib, moliyaviy resurslarning uzoq muddatli o'sishini qo'llab-quvvatlaydi. Institutsional investorlarning moliyaviy vositachilar sifatidagi roli ularning alohida blok egalari bilan taqqoslaganda turli tashkiliy tuzilmalar va me'yoriy asoslar ostida ishslashini anglatadi. Ushbu noyob joylashuv ularga korporativ boshqaruv amaliyotini takomillashtirish uchun ularning hajmi va tajribasidan foydalanishga imkon beradi.¹⁰⁶ Shuningdek, institutsional investorlarning katta investitsiya portfellari turli sohalarga mablag' kiritilishi orqali risklarni keng qamrovli diversifikatsiyalash imkonini yaratadi. Bu esa, tizimiyl risklarni kamaytirib, bozorning umumiyl barqarorligiga sezilarli hissa qo'shadi. Mablag'larning turli sektorlarga taqsimlanishi, iqtisodiy sharoitlardagi o'zgarishlarga moslashuvchanlikni oshiradi hamda spekulyatsion ta'sirlarni yumshatadi. Yirik savdo hajmlari va doimiy kapital oqimlari esa bozorning likvidligini oshiradi. Bu omil investorlar uchun tezkor aylanib turadigan, ishonchli va barqaror investitsiya muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Yirik investorlar tomonidan amalga oshirilayotgan doimiy savdo operatsiyalari bozorning faol va shaffof bo'lishiga, shuningdek, investorlar orasida ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, institutsional investorlar korporativ boshqaruv tizimini ham optimallashtirishda katta rol o'ynaydi. Ular, kompaniyalarning boshqaruv organlarini faol nazorat qilib, axborotning shaffofligini ta'minlash va samaradorlikni oshirish orqali, korporativ boshqaruv tizimining ishonchliligin kuchaytiradi. Bu esa, nafaqat kompaniyalar uchun, balki butun moliya bozor uchun ham barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Umuman olganda, institutsional investorlarning moliya bozordagi roli – uzoq muddatli investitsiyalar orqali barqarorlikni ta'minlash, risklarni diversifikatsiyalash orqali tizimiyl barqarorlikni mustahkamlash, bozor likvidligini oshirish hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirish – moliyaviy tizimning sog'lom ishlashi va iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. AQSh, Yevropa va Osiyo moliya bozorlarida institutsional investorlar bozor barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning uzoq muddatli investitsiya strategiyalari, risklarni boshqarish va axborot shaffofligini ta'minlash bo'yicha qo'llanilgan amaliyotlari xalqaro standartlarga mos keladi.¹⁰⁷

¹⁰⁶ https://en.wikipedia.org/wiki/Institutional_investor

¹⁰⁷ <https://core.ac.uk/download/pdf/336866653.pdf>

O'zbekiston sharoitida institutsional investorlarning imkoniyatlarini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar asosiy o'rinni tutadi:

Avvalo, yirik investitsiya fondlarining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Mavjud pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalar va investitsiya fondlarini ilg'or boshqaruv tizimi va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash orqali, ushbu subyektlarga bozor ishonchini yanada oshirish, kapital oqimini kengaytirish va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, moliya bozorning shaffofligi va likvidligini oshirib, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga turtki bo'ladi. Shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish orqali bozor ishtirokchilarining huquqlarini mustahkamlash ham muhim. Bozor shaffofligini ta'minlovchi, investorlarni himoya qiluvchi va spekulyatsion risklarni kamaytiruvchi qonun va nizomlar ishlab chiqish, institutsional investorlarning faoliyatini tartibga solishda muhim omil bo'ladi.

Bunday normativ asoslar investorlar ishonchini oshirishga, axborot almashinuvi va korporativ boshqaruv tizimini yanada optimallashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlik esa O'zbekiston moliya bozorini global standartlarga moslashtirishda va ilg'or tajriba almashishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mamlakat sharoitiga moslashtirish orqali, institutsional investorlar uchun yanada qulay investitsiya muhitini yaratish mumkin. Bu yo'l bilan, O'zbekiston moliya bozori nafaqat ichki, balki xalqaro maydonda ham raqobatbardosh va barqaror tizimga aylanadi.¹⁰⁸

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, moliya bozor barqarorligini ta'minlashda institutsional investorlarning o'rni strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular nafaqat yirik mablag'larni boshqarish, balki tizimiyligi risklarni kamaytirish, bozor likvidligini oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Ushbu subyektlarning faol ishtiroki moliyaviy tizimning mustahkamligini yaratish va investorlar ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat siyosati va qonunchilikni yanada optimallashtirish hamda xalqaro tajriba almashinuvi orqali institutsional investorlar imkoniyatlarini kengaytirish milliy moliya bozorining raqobatbardoshligini ta'minlashga va iqtisodiyotning sog'lom rivojlanishiga turtki beradi.

QIMMATLI QOG'ÖZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR FAOLIGINI OSHIRISH

Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar"
kafedrasi professori*

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanirish moliya bozori strategiyalarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Mamlakatimizda

¹⁰⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-1412377>